

## **XITOI BUDDAVIYILIGI TA'LIMOTI SHAKLLANISHINING G'OYAVIY ILDIZLARI**

*Mamatqulova Nilufar Xusanovna*

*Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti tadqiqotchisi*

*[mamatqulovanilufar1991@bk.ru](mailto:mamatqulovanilufar1991@bk.ru)*

**ANNOTATSIYA** *Ushbu maqolada Xitoy buddaviyligi ta'limoti shakllanishining g'oyaviy ildizlari hamda yo'nalishlari haqida mulohaza yuritilgan. Shuningdek, Buddaviylikning Uzoq Sharq falsafiy tafakkuri rivojiga ta'sir ko'rsatgan jihatlari bayon qilingan.*

**Kalit so'zlar:** *Budda, Hindistonda, Xitoy, Markaziy Osiyo, Qadimgi Yunoniston, xinayana va maxayana yo'nalishlari, Nagarjuna, Xitoy Buddaviyligi, Shakyamuni.*

**АННОТАЦИЯ** *В данной статье рассматриваются идейные корни и направления становления китайского буддизма. Также описаны аспекты буддизма, повлиявшие на развитие дальневосточной философской мысли.*

**Ключевые слова:** *Будда, Индия, Китай, Средняя Азия, Древняя Греция, Хинаяна и направления Хинаяны, Нагарджуна, китайский буддизм, Шакьямуни..*

**ABSTRACT** *This article discusses the ideological roots and directions of the formation of Chinese Buddhism. Also, the aspects of Buddhism that influenced the development of Far Eastern philosophical thinking are described.*

**Key words:** *Buddha, India, China, Central Asia, Ancient Greece, Hinayana and Hinayana trends, Nagarjuna, Chinese Buddhism, Shakyamuni.*

Dunyoga Buddani in'om qilgan davr Hindistonda aqliy va falsafiy izlanishlarning mislsiz taraqqiy etgan davri hisoblanadi. Bu holatni nafaqat Hindistonda, balki Xitoyda, Markaziy Osiyoda, Qadimgi Yunonistonda ham kuzatish mumkin. Bu davrda yuqorida qayd etilgan mintaqalarda Lao-szi va Konfutsiyini, Zardusht va Pifagorning faoliyatlarini

guvohi bo'lamiz. Ushbu davrda Hindistonda moddiyunchilik ta'limoti shakllandi, shuningdek, Bxagavadgita, buddaviylik va jaynizm ta'limotlari hamda ijtimoiy tafakkurning ko'plab boshqa oqimlari yuzaga keldi, keyinchalik yuqorida qayd etilgan ta'limotlar turli hind falsafiy tizimlarining shakllanishiga asos bo'ldi. Bu davrda mintaqada turli g'oyaviy oqimlar mavjud bo'lib, ularning ba'zilari boshqasidan kelib chiqqanligi va ba'zan ularning xususiyatlari o'zaro bir-biriga muvofiq kelishi bilan o'ziga xos jihatga ega. Hindistonda buddaviylik bilan bir qatorda turli xil falsafiy maktablar ham rivojlandi. Vaqt o'tishi bilan buddaviylikning o'zida g'oyaviy bo'linish yuz berdi va bu holat tafakkurning turli maktablari shakllanishiga sabab bo'ldi. Tafakkur ta'limotlarida sekinlik bilan falsafiy ruh kamayib bordi, uning o'rniga sxolastika va polemik bahslar katta ahamiyatga ega bo'lib bordi<sup>1</sup>. Budda o'z davridagi diniy qadriyatlar va amaliyotga qarshi isyon urug'larini ekkan edi. Bu jamiyatdagi ortodoksal e'tiqod vakillarining e'tirozlariga sabab bo'ldi. Buddaning nazariyasi yoki falsafiy ta'limoti e'tirozlarga sabab bo'lgani yo'q (ortodoksal e'tiqod doirasida hali nazariya bo'lgan istalgan falsafiy qarashni himoya qilish mumkin edi), balki uning ijtimoiy hayot qadriyatlari va insonlarni tashkillashtirishga aralashuvi yuqoridagi holatga sabab bo'lgan edi. Eski tizim barcha sohada, shu jumladan, tafakkur sohasida ham erkin va moslashuvchan bo'lib, istalgan turdagi fikrlarning mavjud bo'lishiga imkon berar edi, lekin amaliyot sohasida mutaassiblik xarakterida bo'lib, o'rnatilgan tartibdan chekinish ta'qiqlangan edi. Shuning uchun buddaviylikning eski e'tiqoddan uzoqlashuvga intilishi muqarrar bo'lib qoldi, Buddaning vafotidan keyin bu jarlik yanada kengaydi. Ilk buddaviylikning tanazzulga yuz tutishi bilan uning yangi shakli maxayana rivojlandi. Buddaviylikning eski shakli xinayana nomi ostida ma'lum edi. Aynan maxayanada Budda ilohiylashtirildi va unga inson hayotiga ta'sir qiluvchi xudo sifatida sig'inish joriy qilindi<sup>2</sup>. Xinayana va maxayana yo'nalishlari tarafdorlari o'rtasida qizg'in va keskin munozara va bahslar bo'lib o'tar edi, butun tarix davomida ular o'zaro muxolifatda bo'lishdi. Xinayana yo'nalishi tarqalgan

---

<sup>1</sup> Радхакришнан С. Индийская философия. В 2 томах. 1 том. М.: "Миф", 1993. – С. 291.

<sup>2</sup> Неру Дж. Открытие Индии. М., 1955 г. – С.264.

mamlakatlarda (Seylon (Shri Lanka), Birma (Myanma), Siyom(Tailand)) Xitoy va Yaponiyada tarqalgan buddaviylikka past nazar bilan qarashadi va bu holat o'ylashimcha, o'zaro xarakterga ega. Xinayana yo'nalishi ta'limotning qadimiy an'alariga tayanib, pali qonunlariga asoslangan vaqtda, maxayana yo'nalishi har bir mamlakatning xususiyatlariga tayangan holda har bir jamiyatning sharoitlariga moslashdi va keng tarqaldi. Hindistonda maxayana xalq dini bilan yaqinlashdi. Xitoy, Yaponiya, Tibet kabi boshqa mamlakatlarda o'z yo'liga asoslanib rivojlandi. Ilk Buddaviylikning yirik mutafakkirlaridan ba'zilari ruhning mavjudligiga nisbatan Buddha tomonidan ilgari surilgan agnostik yondashuvni inkor qilishdi. Yuksak aqliy salohiyatga ega mutafakkirlar orasida hind farzandi Nagarjuna ham bor. Nagarjuna nasroniylar erasi boshida, Kanishka hukmronlik qilgan vaqtda yashagan, mutafakkir maxayana doktrinasini shakllantirishda asosiy o'rinni egallagan. Nagarjuna tafakkuri qudratli va jasoratli, dadil ekanligi bilan diqqatga sazovordir. U aksariyat kishilar uchun shakkoklik xususiyatiga ega bo'lgan va dahshatli ahamiyat kasb etgan xulosalarga kelishdan qo'rqmaydi. Nagarjuna o'zi e'tiqod qilgan jihatlarni inkor qilguniga qadar mantiqqa asoslanib o'zining dalil-isbotlarini rivojlantirdi. Fikr o'zini bila olmaydi va o'zidan chiqib keta olmaydi yoki boshqa narsani bila olmaydi. Olamdan tashqarida xudo yo'q, va xudodan tashqarida olam yo'q, ikkalasi ham zohiriy ahamiyatga ega<sup>3</sup>. Sobiq Ittifoq Fanlar Akademiyasidan bo'lgan professor F. Sherbatskiy "The Conception of Buddhist Nirvana" (Leningrad, 1927 y.) asarida Nagarjunani insoniyatning buyuk faylasuflari qatoriga kiritish kerakligini ta'kidlagan. Olim mutafakkirning mo'jizali, qiziqarli, dadil va muammoli uslubda yozilgan kitobatini maqtaydi. Sherbatskiy Nagarjunaning qarashlarini Bredli va Gegel qarashlari bilan qiyoslaydi: Nagarjunaning negativizmi va Bredlining dunyo haqidagi barcha qarashlari o'rtasida o'zaro muvofiqlik borligi diqqatga sazovordir. Bu holatni narsalar va ularning xususiyatlari, munosabatlar, makon va zamon, o'zgarishlar, sababiyat, harakat va shaxsning "men"i kabi masalalarda kuzatish mumkin. Hindcha nuqtayi nazardan Bredlini madxyamik deb ta'riflash mumkin. Bu o'xshashliklardan tashqari, Gegelning dialektik

---

<sup>3</sup> Радхакришнан С. Индийская философия. В 2 томах. 1 том. М.: "Миф", 1993. – С. 291.

metodi va Nagarjunaning dialektikasi o'rtasida aynan muvofiqlikni kuzatishimiz mumkin<sup>4</sup>. Bir mashhur buddaviylik mutafakkiri shunday degan edi: “dunyodagi barcha narsalar shunyata tufayli mavjud, usiz dunyoda hech narsa mavjud emas”<sup>5</sup>. Bu sohada tengi yo‘q bo‘lgan tadqiqotchi Sherbatskiyning fikricha, qadimgi tillarda, xususan, tibet tilida shunyata so‘zi nisbiylik ma’nosini beradi. Nimaiki, o‘zaro aloqadorlikda va nisbiylikda bo‘lsa, albatta mutlaqlikka ega bo‘lmaydi.

Buddaviylik diniy-falsafiy ta’limoti ajdodlarimiz bir qismining qadriyatiga aylangan edi. Bu ta’limot Qadimgi Hindistonda eramizdan avvalgi VI asr oxiri va V asr boshlarida yuzaga kelgan bo‘lib, keyinchalik jahon dinlaridan biriga aylangan. Bu ta’limotga asos solgan kishi Gautama urug‘idan chiqqan Sidharta bo‘lib, keyinchalik Buddha, ya’ni nurlangan, degan nomga sazovor bo‘lgan. Buddaviylik jamiyatining tabaqalarga bo‘linishiga qarshi qaratilgan bo‘lib, azob-uqubat va undan qutilish borasida barcha insonlar tengdirlar, degan g‘oyani ilgari surgan. Eramizdan oldingi III asrda shoh Ashoka buddaviylikni qabul qilib, uni hukmron mafkuraga aylanishiga va Hindiston hududidan tashqariga, shu jumladan, Markaziy Osiyoga yoyilishiga sababchi bo‘lgan.

Buddaviylik ta’limotiga ko‘ra, insonning oliy maqsadi qayta tug‘ilish emas, balki huzur-halovatli holat bo‘lgan nirvanaga (yakka jonning mutlaq jon bilan qo‘shilib ketishiga) erishishdir.

Buddaviylik ikki jihatni, ya’ni narsalar tabiati haqidagi va bilish yo‘llari to‘g‘risidagi ta’limotni o‘z ichiga oladi. Uning narsalar tabiati haqidagi ta’limoti asosida draxmalar – “o‘zining belgilariga ega bo‘lgan zarrachalar” yoki “unsurlar” to‘g‘risidagi tushunchalar yotadi. Draxma-zarrachalar dunyoviy ashyolarning hujayralari kabi butun moddiy va ruhiy olamning jarayonlarida ular tarkibida harakatda bo‘lib, har lahzada shu’lalanib va uchib turadi. Buddaviylik falsafasida dunyoni azaldan doimo o‘zgarishda, qaytadan tug‘ilishda ko‘rish va oqib turgan daryo bilan taqqoslash g‘oyasi yotadi<sup>6</sup>. Buddaviylikning ikkinchi

---

<sup>4</sup> Неру Дж. Открытие Индии. М., 1955 г. – С.266.

<sup>5</sup> Радхакришнан С. Индийская философия. В 2 томах. 1 том. М.: “Миф”, 1993. – С. 292.

<sup>6</sup> Wu, Jiang and Chia, Lucille, ed. Spreading Buddha’s Word in East Asia: The Formation and Transformation of the Chinese Buddhist Canon. New York: Columbia University Press, 2015. – P.56.

jihati, ya'ni bilishning yo'llari haqidagi ta'limot yogacha usulda mushohada qilishning sub'ektiv-g'oyaviy usuli bilan bog'liqdir. Uning mohiyati ichki betashvish holat bo'lgan nirvanaga, ya'ni ruhiy xotirjamlikka erishishdir. Buddaviylikning Markaziy Osiyoda amalda bo'lgan Mohayana falsafiy tizimi axloqqa oid muammolarni qamrab olgan bo'lib, xalq ommasini sabr-qanoatga da'vat etgan. Buddaviylikning asosiy qoidasi bo'lgan azob-uqubatdan tarki dunyochilik orqali qutilish g'oyasi ko'pchilikni o'ziga jalb etar edi.

Budda (to'g'rirog'i Buddha, sanskrit tilida – oydinlashgan, nurlangan ma'nosida) Guatama urug'idan chiqqan Siddxartxa ismli shaxs bo'lib, buddaviylik an'anasiga ko'ra, buddaviylik falsafasi va dinining asoschisidir. Siddxartxa Shakyamuni podsho Shuddxodan xonadonida tug'ilgan bo'lib, yoshligida braxman o'qituvchilarining nasihatlarini tinglagan. 29 yoshida saroyni tark etib, Uruviyava o'rmonida tarki dunyochilik holatida mushohada orqali dunyoning abadiy ravishda shakllanib turishini tushunib yetgan. Arxeologik qazishmalarning guvohlik berishicha, eramizdan oldingi uchinchi asrda kishilar uni yerdagi buddaviylik dinining asoschisi hisoblashgan va ushbu din ijtimoiy holatdan yuz o'girishni, zo'rlikka qarshi chiqmaslikni va taqdirga tan berishni targ'ib etgan. Hozirgi zamon fani Budda hayotini eramizdan oldingi 563-483 yillarga taalluqli ekanini ta'kidlaydi.

Buddaviylik qadimgi hind jamiyatida mavjud bo'lgan tabaqalarga (kasta) bo'linish va kohinlarga qarshi chiqqan. Barcha insonlarning tengligining e'lon qilinishi buddaviylikning keng yoyilishiga sabab bo'lgan. Yirik davlatlar tashkil topishi sharoitida braxmanlik dinining kohinlariga qarshi qaratilgan bo'lganligidan, buddaviylik katta davlatlar hukmdorlariga foydaliroq edi<sup>7</sup>. Eramizdan oldingi III asrda shoh Ashoka buddaviylikni qabul qilib, uni Hindistondan chetga chiqib yoyilishiga hissa qo'shgan edi. Budda dini o'z navbatida urf-odatlar, sig'inish marosimlari va aqidalar tizimini ishlab chiqqan. Qadimgi Hindistonda mavjud bo'lgan ruhlarning ko'chib yurishi haqidagi tasavvurlardan kelib chiqib, buddaviylik tirik mavjudotlarning qayta tug'ilish aqidasi o'lg'a surgan. Uning ta'kidlashicha, tirik mavjudotning o'limi uning zarrachalardan tashkil

---

<sup>7</sup> Буддизм: история и культура: Сб. ст. / Отв. ред. Ветроградова В.В. - М.: Наука, 1989. – С.32.

topgan tanasining sochilib ketishi bo'lib, shundan keyin uning yangi unsurlari bo'lgan – dxarmalarning yangidan tashkil topishi yuz beradi. Dxarmalarning yangi kombinatsiyasi ilgari ko'chib yurish doirasida vujudga kelgan barcha xayrli ishlar va gunohlar majmuasiga bog'liq bo'lgan karma orqali tayin etiladi. Buddaviylikning ezgu orzusi – ruhning ko'chib yurish jarayonini to'la barham topishi va shu yo'l bilan go'yo hayot mohiyatini tashkil etuvchi azob-uqubatdan qutulish holati – nirvanaga erishish edi.

Buddaviylikning falsafiy mazmuni ikki jihatni o'z ichiga oladi: narsalar tabiati haqidagi ta'limot va bilish yo'llari to'g'risidagi ta'limot. Buddaviylikning narsalar tabiati haqidagi ta'limoti asosida draxmalar – “o'zining belgilariga ega bo'lgan zarrachalar” yoki “bo'lakchalar”, “unsurlar” to'g'risidagi tushunchalar yotadi. Bu ta'limotga ko'ra, draxmazarrachalar dunyoviy ashyolarning hujayralari kabi butun moddiy va ruhiy olamning jarayonlarida ular tarkibida harakatda bo'lib, har lahza shu'lalanib va o'chib turadi. Uning har bir o'chishi yangidan shu'lalanish va boshqatdan o'chishni anglatadi. Buddaviylik falsafasida dunyoni azaldan doimo o'zgarishda, qaytadan tug'ilishda ko'rish va oqib turgan daryo bilan taqqoslash g'oyasi yotadi<sup>8</sup>.

Buddaviylikda dxarma – unsurlari uchun bir necha tasniflash ishlab chiqilgan. Ilk buddaviylik namoyon bo'lgan borliq – sansara va namoyon bo'lmagan borliq – nirvanaga bo'linishni qayd etgan edi. “Namoyon bo'lgan borliq” charxida bo'lish azob-uqubatlari tortish bilan hamroh bo'lib, undan qutulish – “axloqiy amalning sakkiz a'zoli yo'li”ni tushunishga olib boradi. Buddaviylik moddiy va ruhiy dunyolar yagonaligini ta'kidlaydi. Buni ta'kidlash madxyaliklar falsafa maktabi namoyondalari tomonidan tizimga solib ishlab chiqilgan.

Buddaviylikning ikkinchi jihati, ya'ni bilishning yo'llari haqidagi ta'limot yogacha usulda mushohada qilishning sub'ektiv-g'oyaviy usuli bilan bog'liqdir. Buddaviylik ruhning mavjudligini, ya'ni inson ichidagi alohida ruhiy mohiyatni inkor etadi. Buddaviylik aqidasi dagilar inson shaxsining moddiy va ruhiy xususiyatini tashkil etuvchi besh guruh unsurlardan tashqarida alohida mavjud bo'lgan atmanni inkor etadilar. Bu besh

---

<sup>8</sup> [Альбедиль М. Ф.](#) Буддизм: религия без бога. — СПб.: Вектор, 2013. – С.28.

unsurlar quyidagilar: 1) ong, 2) tasavvurlar, 3) his-tuyg‘u, 4) karma kuchlari, 5) inson tashqi sezgilari (2-ilova). Ushbu sxemada qandaydir o‘zgarmaydigan, abadiy ibtidoğa o‘rin yo‘q. Sabab oqibatdan oldin keladi. Inson shaxsi, dunyodagi barcha narsalar kabi o‘n ikki a‘zoli “sababiy tug‘ilish” ifodasida mujassamlashgan sabab va oqibat qonuniga bo‘ysunadi. Mavjud insoniy hayot – faqat ilgarigi mavjudlikning xulosasidir, xolos. Ong yerdagi hayotning “shaxsiy oqimi” orqali oqib, o‘rtadagi holatlar orqali va undan keyin keladigan yangi qayta tug‘ilish bosqichlarini bosib o‘tib, har lahzada o‘z mazmunini o‘zgartirib turadi. Ushbu abadiy tashkil topish ko‘pincha qadimgi hind falsafiy adabiyotidagi chirog‘ shu’lasiga o‘xshatiladiki, undagi yonish va o‘chish jarayoni to‘xtovsiz davom etib, doimiylik tasavvurini tug‘diradi<sup>9</sup>.

Namoyon bo‘lmagan borliq, ya’ni nirvanaga mansublik esa, chirog‘da shu’laning o‘chishiga qiyoslanadiki, undagi yog‘ ta’mini tamom bo‘lgani sababli, u o‘chadi. Ammo o‘chgan shu’la, yo‘qolgan o‘t emas, balki boshqa holatga o‘tgan shu’ladir. Buddaviylik dialektikasi bo‘linib turuvchi oqim tushunchasini ishlab chiqqan.

Buddaviylik ilk davrlardayoq bir necha yo‘nalishlarga bo‘linib ketgan edi. Aqidaviy qarama-qarshiliklarni oldini olish maqsadida umumiy majlis chaqirish zarur bo‘lgan. Buddaviylik an’anasi to‘rt marta umumiy majlis chaqirilganligidan guvohlik beradi: Radjachrixadagi majlis (er. ol. 477 yil), Vayshala majlis (er. ol. 367 yil), Patalaputra majlisi (er. ol. III asr) va Kashmirdagi majlis (eramizning II asrida). Mamlakat sharqida “Katta jamoa” tarafdorlari yig‘ildilarki, ular maktabini Mohayana (“Katta arava” yoki najotning “keng yo‘li”) deb atadilar. Qolgan maktablar Xinoyana (“Kichik arava”) nomini olgan. Ashoka (er. ol. III asr) va Kushonlar (II-III asrlar) davrida buddaviylik Hindiston hududlaridan tashqariga chiqqan. II va III asrlarda buddaviylik Andhra imperiyasida hukmron mavqega ega bo‘lgan. IV-V asrlar davomida buddaviylik falsafasi hind madaniyatining barcha sohalariga kirib borgan. V asrning birinchi yarmida shoh

---

<sup>9</sup> Радхакришнан С. Индийская философия. В 2 томах. 1 том. М.: “Миф”, 1993. – С. 507.

Kumaragupta I Nalandada buddaviylik universitetini ta' sis etgan. Bu universitet keyinchalik xalqaro ahamiyatga ega bo'lgan. Ushbu ta'limotning yoyilishida buddist jamoalarning (sangxa) roli katta bo'lgan. Ular yilning ob-havosi yaxshi bo'lgan to'qqiz oyida shaharma-shahar, qishloqma-qishloq yurib, aholini bu dinga da'vat qilib yurganlar. Faqatgina musson yomg'irlari tinmay quygan uch oydagina o'z ibodatxonalarida muqim bo'lib meditatsiya bilan shug'ullanganlar. Mil. av. 273 – 232 yillarda hukmronlik qilgan imperator Ashoka davrida buddizm keng hududlarga jadal tarqaldi. U buddist monaxlarga (rohiblar), ularning Hindiston bilan chegaradosh davlatlarga qilgan missionerlik harakatlariga xayrixohlik bildirardi. Buddist missionerlari o'z prinsiplarida mahkam turib, yumshoqlik va kelishuvchanlik bilan harakat qildilar.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR**

1. Huai-Chin, Nan (tr. Thomas Cleary); The Story of Chinese Zen. Charles E. Tuttle Company, 1995. P-34/
2. McRae, John R. Seeing through Zen: Encounter, Transformation, and Genealogy in Chinese Zen Buddhism. — Berkeley: [University of California Press](#), 2004. P-69.
3. 换产花 。佛小个迅带 Xuan Chanxua. Fotszyao geszun da i (Xitoy Buddaviyligi maktablari ta'limotlarining mohiyati). Taybey, 1973;142-bet.
4. Кацуки С. Дзэн-Буддизм: Основы Дзэн-Буддизма. Практика Дзэн. — Бишкек: МП «Одиссей», 1993.Стр